

NEYRON TARMOQLAR NAZARIYASINING SHAKLLANISHI VA IQTISODIY BASHORATLASHDAGI ILMIY ASOSLARI

Jo'rayev Olim Albayevich

*Termiz davlat universiteti Kompyuter va dasturiy injiniring kafedrası mudiri
olimjurayev9800@gmail.com*

Egamberdiyev Arslonbek Jo'rabek o'g'li

*Termiz davlat universiteti 60610300 - Kompyuter injiniringi yo'nalishi talabasi
egamberdiyevarslonbek35@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada neyron tarmoqlar nazariyasining shakllanish va rivojlanish bosqichlari, ularning iqtisodiy bashoratlash jarayonlaridagi ilmiy-uslubiy ahamiyati tahlil qilingan. Sun'iy neyron tarmoqlarning biologik asoslari, dastlabki matematik modellari hamda Deep Learning texnologiyalarigacha bo'lgan evolyutsiyasi yoritilgan. Shuningdek, xorijiy, MDH va O'zbekiston olimlarining iqtisodiy prognozlash sohasida neyron tarmoqlardan foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlari o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, neyron tarmoqlar murakkab va chiziqli bo'lmagan iqtisodiy bog'liqliklarni aniqlash, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash hamda yuqori aniqlikdagi prognozlarni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Kalit so'zlar: sun'iy neyron tarmoqlar, Deep Learning, iqtisodiy bashoratlash, sun'iy intellekt, Big Data, LSTM, RNN, iqtisodiy modellashtirish, prognozlash, mashinali o'rganish

ФОРМИРОВАНИЕ ТЕОРИИ НЕЙРОННЫХ СЕТЕЙ И ЕЁ НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ ПРОГНОЗИРОВАНИИ

Жураев Олим Албаевич

*Заведующий кафедрой «Компьютерная и программная инженерия»
Термезский государственный университет olimjurayev9800@gmail.com*

Эгамбердиев Арслонбек Журабек угли

Студент направления 60610300 – «Компьютерный инжиниринг»

*Термезский государственный университет
egamberdiyevarslonbek35@gmail.com*

Аннотация: В данной статье рассмотрены этапы формирования и развития теории нейронных сетей, а также их научно-методологическое значение в процессах экономического прогнозирования. Освещены биологические основы искусственных нейронных сетей, первые математические модели и эволюция технологий до современных методов глубокого обучения. Проанализированы

научные исследования зарубежных, российских и узбекских ученых по применению нейронных сетей в экономическом прогнозировании. Результаты исследования показывают, что нейронные сети являются эффективным инструментом для выявления сложных нелинейных зависимостей, обработки больших объемов данных и построения высокоточных прогнозов.

Ключевые слова: искусственные нейронные сети, глубокое обучение, экономическое прогнозирование, искусственный интеллект, Big Data, LSTM, RNN, экономическое моделирование, прогнозирование, машинное обучение

FORMATION OF NEURAL NETWORK THEORY AND ITS SCIENTIFIC FOUNDATIONS IN ECONOMIC FORECASTING

Juraev Olim Albaevich

Head of the Department of Computer and Software Engineering

Termez State University olimjurayev9800@gmail.com

Egamberdiyev Arslonbek Jurabek ugli

Student of the specialty 60610300 – "Computer Engineering" Termez State

University egamberdiyevarslonbek35@gmail.com

Abstract: This article examines the formation and development of neural network theory and its scientific and methodological significance in economic forecasting. The biological foundations of artificial neural networks, early mathematical models, and the evolution of deep learning technologies are discussed. The study also analyzes the research contributions of international, CIS, and Uzbek scholars in applying neural networks to economic forecasting. The findings indicate that neural networks are effective tools for identifying complex nonlinear relationships, processing large-scale datasets, and generating highly accurate forecasts in modern economic systems.

Keywords: artificial neural networks, deep learning, economic forecasting, artificial intelligence, big data, LSTM, RNN, economic modeling, forecasting, machine learning

Kirish: Jahon iqtisodiyotida axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va raqamli transformatsiya jarayonlarining chuqurlashuvi iqtisodiy tizimlarning funksional tuzilmasini tubdan o'zgartirmoqda. Bulutli hisoblash, katta ma'lumotlar (Big Data), sun'iy intellekt va raqamli platformalarning keng joriy etilishi natijasida iqtisodiy muhit yanada murakkab, ko'p omilli va yuqori tezlikda o'zgaruvchan tus olmoqda. Bunday sharoitda iqtisodiy jarayonlarni real vaqt rejimiga yaqin holda tahlil qilish hamda ularni ilmiy asoslangan va yuqori aniqlikdagi bashoratlar bilan ta'minlash masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlar va amaliy boshqaruv tizimlari uchun dolzarb vazifaga aylanmoqda.

An'anaviy ekonometrik modellashtirish usullari axborot texnologiyalariga asoslangan iqtisodiy muhitda shakllanayotgan katta hajmdagi, strukturaviy jihatdan murakkab va tez yangilanib boruvchi ma'lumotlarni qayta ishlashda muayyan cheklovlarga ega. Ushbu usullar ko'pincha chiziqlilik, stasionarlik va oldindan belgilangan funksional bog'lanishlarga tayanishi sababli raqamli iqtisodiyot sharoitida yuzaga kelayotgan nolinear jarayonlar, algoritmik o'zaro ta'sirlar va texnologik omillarning iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini to'liq aks ettira olmaydi. Natijada, an'anaviy modellar asosida ishlab chiqilgan bashoratlar zamonaviy IT infratuzilmalari bilan integratsiyalashgan iqtisodiy tizimlar talablariga to'liq javob bermaydi.

Mazkur sharoitda neyron tarmoqlar nazariyasiga asoslangan axborot texnologik yondashuvlar iqtisodiy bashoratlashning ilmiy-uslubiy asoslarini sezilarli darajada kengaytiradi. Neyron tarmoqlar yuqori hisoblash quvvatiga ega zamonaviy IT platformalari yordamida katta hajmdagi va turli formatdagi ma'lumotlarni samarali qayta ishlash, nolinear bog'lanishlarni aniqlash hamda murakkab iqtisodiy jarayonlarni moslashuvchan modellashtirish imkonini beradi. Ularning o'z-o'zini o'rganish va adaptivlik xususiyatlari raqamli iqtisodiyotda shakllanayotgan dinamik jarayonlarni aniqlik bilan bashoratlashda muhim ilmiy va amaliy ustunliklarni ta'minlaydi.

Sun'iy neyron tarmoqlar statistik tahlil sohasida murakkab, ko'p omilli va nolinear jarayonlarni modellashtirish imkoniyati bilan ajralib turadi. An'anaviy parametrik statistik modellar (masalan, chiziqli regressiya yoki klassik vaqt qatori modellari) odatda ma'lum funksional shakl va qat'iy taxminlarga (normal taqsimot, chiziqlilik, gomoskedastiklik va boshqalar) tayanadi. Neyron tarmoqlar esa ma'lumotlar tuzilmasi haqida qat'iy aprior farazlarni talab qilmaydi va murakkab bog'liqliklarni empirik ravishda o'rganish imkonini beradi. Statistik nuqtai nazardan, neyron tarmoqlarning asosiy afzalligi — ularning **universal approksimatsiya xususiyatidir**. Ya'ni, yetarli miqdordagi yashirin qatlam va neyronlar mavjud bo'lganda, ular uzluksiz funksiyalarning istalganini ma'lum aniqlik darajasida yaqinlashtira oladi. Bu esa iqtisodiy, moliyaviy yoki ijtimoiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi nolinear va yashirin bog'liqliklarni aniqlashda muhim ustunlik beradi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yillarda sun'iy neyron tarmoqlar va chuqur o'rganish metodlarining ilmiy hamda amaliy qo'llanilish darajasi sezilarli oshgan. Xususan, **Stanford University** tomonidan e'lon qilinadigan *AI Index Report* ma'lumotlariga ko'ra, 2015–2022 yillar oralig'ida "deep learning" yo'nalishidagi ilmiy maqolalar soni ikki barobarga ko'paygan¹. Bu holat neyron tarmoqlarning ilmiy tadqiqotlar markazida turganini ko'rsatadi. Shuningdek, xalqaro konsalting kompaniyasi **McKinsey & Company** hisobotlariga ko'ra, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanayotgan tashkilotlarning 78%i aynan mashinaviy

¹ Stanford University. *AI Index Report 2022*

o'rganish va neyron tarmoq modellaridan foydalanishini qayd etgan². Bu esa neyron tarmoqlarning iqtisodiyot va biznes jarayonlarida amaliy ahamiyati ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash jarayonida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt tizimlarining ulushini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, prognozlash va boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, jumladan, sun'iy neyron tarmoqlarni joriy etish bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar va amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlar iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniq va ishonchli prognozlash, hududiy rivojlanish strategiyalarini optimallashtirish hamda resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi³, 2025-yil 22-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi⁴ PF-189-son Farmonlari, 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-iyuldagi 425-son "2025–2026-yillarda sun'iy intellekt texnologiyalari sohasida ustuvor loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi⁵ qarori va neyron tarmoqlar asosida iqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlash usullari hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi neyron tarmoqlar nazariyasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini o'rganish hamda ularning iqtisodiy bashoratlashdagi ilmiy va amaliy ahamiyatini tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili: Neyron tarmoq (sun'iy neyron tarmoq) atamasi inson miyasi faoliyatini o'rganish va uni matematik hamda mantiqiy modellar orqali ifodalashga bo'lgan ilmiy urinishlar natijasida shakllangan. Ushbu tushunchaning paydo bo'lishi XX asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi va u asosan AQSh hamda Yevropa ilmiy maktablarida rivojlangan.

Neyron tarmoq g'oyasining biologik asoslari. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida biologlar va nevrologlar inson miyasi neyronlar deb ataluvchi nerv hujayralaridan tashkil topganini ilmiy jihatdan asoslab berdilar. Neyronlar o'zaro elektr va kimyoviy

² McKinsey & Company. *The State of AI Report*, 2022

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.10.2024 yildagi PQ-358-son <https://lex.uz/docs/-7158604>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 22.10.2025 yildagi PF-189-son <https://lex.uz/docs/-7789403>

⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 10.07.2025 yildagi <https://digital.uz/oz/news/view/67962>


impulslar orqali bog‘lanib, murakkab axborot almashinuvi tizimini hosil qiladi. Aynan shu biologik jarayonlar keyinchalik sun‘iy modellashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

1943-yil, Neyron tarmoq tushunchasining ilmiy asoslanishi. Neyron tarmoqlar nazariyasining shakllanishi 1943-yilda AQShda muhim ilmiy hodisa bilan bog‘liq. Amerikalik olimlar Uorren Makkallok (Warren McCulloch) va Uolter Pitts (Walter Pitts) “*A Logical Calculus of the Ideas Immanent in Nervous Activity*” nomli ilmiy maqolani e‘lon qildilar. Ushbu ishda ular birinchi sun‘iy neyron modelini taklif etdilar.

Mazkur modelda:

- neyron kirish signallarini qabul qiladi;
- ularni ma‘lum chegaraviy qiymat (threshold) bilan solishtiradi;
- natijada 0 yoki 1 ko‘rinishidagi chiqish signali hosil bo‘ladi.

Bu model inson miyasidagi biologik neyronlarning soddalashtirilgan matematik ifodasi bo‘lib, keyinchalik “sun‘iy neyron” tushunchasiga asos soldi. Aynan shu davrdan boshlab neyron tarmoq atamasi ilmiy muomalaga kira boshladi.




1.1-rasm.Neyron tarmoq atamasining shakllanishi, paydo bo‘lishi va rivojlanishining dastlabki bosqichlari.

1949-yil, O‘rganish mexanizmining paydo bo‘lishi. Donald Hebb tomonidan 1949-yilda taklif qilingan Hebb qoidasi (Hebbian Learning Rule) neyron tarmoqlarning o‘rganish qobiliyatini tushuntirib berdi. Unga ko‘ra, agar ikki neyron bir vaqtda faollasha, ular orasidagi bog‘lanish kuchayadi. Bu tamoyil keyinchalik sun‘iy neyron tarmoqlarda og‘irlik koeffitsientlarini moslashtirish g‘oyasining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

1957–1958-yillar. “Perseptron” va atamaning ommalashuvi. 1957-yilda AQShda olim Frank Rozenblatt (Frank Rosenblatt) tomonidan perseptron modeli ishlab

chiqildi. Perseptron:

- kirish qatlamidan;
- og'irlik koeffitsientlaridan;
- chiqish neyronidan iborat bo'lib, oddiy tasniflash vazifalarini bajarishga qodir edi.



1.2-rasm. Biologik neyronning ko'rinishi⁶.

1958-yilda u perseptronni amaliy qurilma sifatida namoyish etdi. Shu davrdan boshlab “artificial neural network” (sun’iy neyron tarmoq) atamasi ilmiy adabiyotlarda keng qo’llanila boshlandi. Demak, neyron tarmoq atamasi:

- qachon: asosan 1943–1958-yillar oralig’ida shakllangan;
- qayerda: AQSh ilmiy muhitida (Chikago, Kornell, MIT atrofidagi ilmiy markazlarda);
- asosida: biologik neyronlar faoliyatining matematik va mantiqiy modellashtirilishi yotadi.

Bugungi kunda neyron tarmoqlar sun’iy intellekt, mashinaviy o’rganish, iqtisodiy bashoratlash va ko‘plab boshqa sohalarning nazariy va amaliy asosini tashkil etmoqda.

Neyron tarmoqlarning 1970–2000-yillardagi rivojlanish bosqichlari

1970–2000-yillar oralig’i neyron tarmoqlar tarixida murakkab, lekin hal qiluvchi davr hisoblanadi. Bu bosqichda dastlabki qiziqishning pasayishi, keyinchalik esa nazariy va amaliy yutuqlar natijasida qayta jonlanish jarayoni kuzatilgan.

1970-yillar inqiroz va tanqidiy davr. 1960-yillarning oxiriga kelib neyron tarmoqlarga bo’lgan ishonch sezilarli darajada pasaydi. Buning asosiy sababi Marvin Minsky va Seymour Papert tomonidan 1969-yilda chop etilgan “*Perceptrons*” asari bo’ldi. Ushbu asarda bir qatlamli perseptronlar murakkab, chiziqli bo’lmagan

⁶ Haykin S. Neural Networks and Learning Machines. 3rd ed. — Prentice Hall, 2009.

masalalarni yecha olmasligi matematik jihatdan isbotlangan edi⁷.

Natijada:

- neyron tarmoqlar bo'yicha moliyalashtirish qisqardi;
- tadqiqotlar asosan ramziy sun'iy intellekt yo'nalishiga o'tdi;
- 1970-yillar "birinchi AI qishi" davri sifatida tarixda qoldi .

1980-yillar, neyron tarmoqlarning qayta tiklanishi.1980-yillarning boshlarida neyron tarmoqlarga qiziqish yana kuchaya boshladi. Bu, avvalo, ko'p qatlamli neyron tarmoqlar va ularni o'qitish algoritmlarining paydo bo'lishi bilan bog'liq.

1982-yilda Jon Hopfield tomonidan taklif etilgan Hopfield tarmog'i assotsiativ xotira modeli sifatida katta e'tibor qozondi. Ushbu model fizikadagi energiya tushunchasiga asoslangan bo'lib, optimallashtirish va naqshlarni tanish masalalarida samarali qo'llanildi.

1986-yil, Backpropagation algoritmi.Neyron tarmoqlar rivojida burilish nuqtasi 1986-yil bilan bog'liq. David Rumelhart, Geoffrey Hinton va Ronald Williams tomonidan xatolikni orqaga uzatish algoritmi (Backpropagation) taklif etildi .

Mazkur algoritim:

- ko'p qatlamli neyron tarmoqlarni samarali o'qitish imkonini berdi;
- chiziqli bo'lmagan murakkab masalalarni yechishni ta'minladi;
- tasvirni tanish, nutqni aniqlash va prognozlash masalalarida keng qo'llanila boshlandi.

Shu sababli 1980-yillar oxiri neyron tarmoqlarning ikkinchi uyg'onish davri sifatida baholanadi.

1990-yillar, amaliy qo'llanmalar va diversifikatsiya.1990-yillarda neyron tarmoqlar nazariy tushunchadan amaliy texnologiyaga aylandi. Ushbu davrda:

- Kohonenning o'z-o'zini tashkil etuvchi xaritalari (Self-Organizing Maps) klasterlash va vizualizatsiya masalalarida qo'llanildi ;
- Radial Basis Function (RBF) tarmoqlari regressiya va tasniflash masalalarida samarali ishlatildi;
- Rekurrent neyron tarmoqlar (RNN) vaqt qatorlarini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ayniqsa, moliya, sanoat, tibbiyot va iqtisodiyotda bashoratlash masalalarida neyron tarmoqlardan foydalanish kengaydi [6].


1997-yil, LSTM modelining yaratilishi.1997-yilda Sepp Hochreiter va Jürgen Schmidhuber tomonidan Long Short-Term Memory (LSTM) modeli taklif etildi. Ushbu model uzoq muddatli bog'liqliklarni eslab qolish muammosini hal qilishga qaratilgan bo'lib, keyinchalik chuqur o'rganish texnologiyalarining asosiy komponentiga aylandi ⁸.

⁷ Minsky M., Papert S. *Perceptrons*. MIT Press, 1969.

⁸ Hochreiter S., Schmidhuber J. Long short-term memory. *Neural Computation*, 1997.

1970–2000-yillar oraligʻida neyron tarmoqlar dastlab tanqid va eʼtiborsizlik bosqichidan oʻtdi, 1980-yillarda nazariy asoslar bilan mustahkamlandi, 1990-yillarda esa amaliy va sanoat miqyosidagi qoʻllanmalar darajasiga yetdi. Aynan shu davrda yaratilgan algoritmlar va modellar 2000-yillardan keyingi Deep Learning revolyutsiyasiga mustahkam poydevor boʻlib xizmat qildi.

A Brief History of AI with Deep Learning



1.3-rasm.2000-yildan keyingi Deep Learning davri: CNN, Deep Neural Networks va Big Data bilan integratsiya⁹.

2000-yildan keyingi davr neyron tarmoqlar tarixida Deep Learning (chuqur oʻrganish) konsepsiyasining shakllanishi va jadal rivoji bilan tavsiflanadi. Ushbu bosqichda koʻp qatlamli neyron tarmoqlar (Deep Neural Networks), konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN) va katta hajmdagi maʼlumotlar (Big Data) oʻzaro uygʻunlashib, sunʼiy intellektning yangi sifat bosqichini yuzaga keltirdi.

2000–2006-yillar: chuqur arxitekturalarga qaytish. 1990-yillarning oxirida neyron tarmoqlar muayyan muammolarga duch keldi:

1. oʻqitish jarayonining sekinligi;
2. lokal minimumlarga tushib qolish;
3. hisoblash resurslarining cheklanganligi.

Shunga qaramay, 2000-yillarning boshlarida koʻp qatlamli neyron tarmoqlarga ilmiy qiziqish yana ortdi. Bu davrda hisoblash quvvatlarining oshishi va optimallashtirish usullarining rivojlanishi chuqur modellarni qayta tiklashga zamin yaratdi ¹⁰.

2006-yil: Deep Learning atamasining shakllanishi. Deep Learning rivojida muhim

⁹ Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. Deep Learning. — MIT Press, 2016.

¹⁰ Haykin S. Neural Networks and Learning Machines. Pearson, 2009.

burilish 2006-yilga to'g'ri keladi. Geoffrey Hinton, Simon Osindero va Yee-Whye Teh tomonidan Deep Belief Networks (DBN) modeli taklif qilindi. Ushbu ishda:

- qatlam-qatlam o'rganish (layer-wise pretraining) yondashuvi;
- chuqur tarmoqlarni samarali o'qitish usuli ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Aynan shu davrdan boshlab "Deep Learning" atamasi mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi.

Konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN) va tasvirlar inqilobi. Konvolyutsion neyron tarmoqlar g'oyasi avvalroq paydo bo'lgan bo'lsa-da, ularning haqiqiy yuksalishi 2010-yillarga yaqin boshlandi. CNN arxitekturasida:

- lokal bog'lanishlar;
- og'irliklarni umumlashtirish (weight sharing);
- konvolyutsiya va pooling qatlamlariga

asoslanadi.

2012-yilda AlexNet modeli ImageNet musobaqasida an'anaviy usullarni katta farq bilan ortda qoldirdi. Ushbu natija CNN'larning tasvirni aniqlash, obyektlarni tanish va video tahlil qilishdagi ustunligini amalda isbotlab berdi ¹¹.

Deep Neural Networks va murakkab masalalar. Deep Neural Networks (DNN) ko'p sonli yashirin qatlamlarga ega bo'lib, murakkab va chiziqli bo'lmagan bog'liqliklarni o'rganish imkonini beradi. 2000-yildan keyin:

- nutqni tanish;
- tabiiy tilni qayta ishlash (NLP);
- moliyaviy va iqtisodiy prognozlash

sohalarida DNN'lar keng qo'llanila boshlandi.

Bu modellar katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlashda yuqori aniqlik ko'rsatdi.

Big Data va Deep Learning uyg'unligi. Deep Learning texnologiyalarining keskin rivojlanishida Big Data muhim rol o'ynadi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, sensorlar va raqamli tizimlar natijasida:

- katta hajmli;
- yuqori tezlikda yangilanadigan;
- turli formatdagi ma'lumotlar paydo bo'ldi.

Katta ma'lumotlar mavjudligi chuqur neyron tarmoqlarni samarali o'qitish imkonini berdi, chunki Deep Learning modellari ko'p ma'lumot talab qiluvchi algoritmlar hisoblanadi.

GPU va hisoblash texnologiyalarining roli. 2000-yillarning oxiriga kelib grafik protsessorlar (GPU) neyron tarmoqlarni o'qitishda keng qo'llanila boshlandi. GPU'lar:

- parallel hisoblashni ta'minladi;
- o'qitish vaqtini sezilarli darajada qisqartirdi;
- chuqur modellarni real muammolarga tatbiq etish imkonini berdi.

¹¹ Krizhevsky A., Sutskever I., Hinton G. ImageNet classification with deep convolutional neural networks. *NIPS*, 2012

2000-yildan keyingi Deep Learning davri ko'p qatlamli neyron tarmoqlarning ilmiy asoslanishi, CNN yordamida tasvir va video tahlilida inqilob, Big Data va GPU texnologiyalari bilan integratsiya orqali sun'iy intellektni yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur davrda yaratilgan yondashuvlar bugungi kunda iqtisodiyot, tibbiyot, sanoat va moliya sohalarida keng qo'llanilmoqda.

Neyron tarmoqlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlar faoliyatining tahlili

Sun'iy neyron tarmoqlar bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari va iqtisodiy bashoratlashning muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishning shakllanishi va rivojlanishi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlarning fundamental hamda amaliy tadqiqotlari bilan chambarchas bog'liqdir. Neyron tarmoqlar nazariyasi biologik neyronlar faoliyatini modellashtirish g'oyasiga asoslanib, dastlab matematik va mantiqiy modellar sifatida shakllangan bo'lsa, keyinchalik murakkab iqtisodiy, texnik va ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilishda samarali vositaga aylandi.

Neyron tarmoqlar bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar asosan an'anaviy statistik va ekonometrik usullar murakkab, chiziqli bo'lmagan va noaniq jarayonlarni to'liq ifodalay olmasligini ilmiy jihatdan asoslab berdilar. Shu sababli ular o'z tadqiqotlarida sun'iy neyron tarmoqlardan foydalanib, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, yashirin bog'liqliklarni aniqlash va yuqori aniqlikdagi prognozlar olishga erishdilar. Ayniqsa, vaqt qatorlari, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, moliyaviy bozorlar va valyuta kurslarini bashoratlash masalalarida neyron tarmoqlar keng qo'llanila boshlandi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, neyron tarmoqlar rivojiga hissa qo'shgan olimlar bu texnologiyani faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy masalalarni yechish vositasi sifatida ham rivojlantirganlar. Ularning ishlari natijasida bir qatlamli perceptronlardan boshlab, ko'p qatlamli va chuqur neyron tarmoqlargacha bo'lgan turli arxitekturalar yaratildi. Ushbu arxitekturalar iqtisodiy jarayonlardagi murakkab dinamikani modellashtirish, uzoq va qisqa muddatli prognozlarni shakllantirish imkonini berdi.

Shuningdek, olimlarning tadqiqotlari neyron tarmoqlarning ustun jihatlari — moslashuvchanlik, o'rganish qobiliyati va chiziqli bo'lmagan bog'liqliklarni aniqlash imkoniyatini — ilmiy asoslab berdi. Bu esa neyron tarmoqlarni iqtisodiy bashoratlash, risklarni baholash, qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirishda muhim ilmiy vositaga aylantirdi. Natijada, neyron tarmoqlar bugungi kunda iqtisodiyot, moliya, bank ishi va biznes tahlilida keng qo'llanilayotgan istiqbolli yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda.

Sun'iy neyron tarmoqlar nazariyasining shakllanishi va rivojlanishida xorijiy olimlarning ilmiy ishlari muhim o'rin tutadi. Aynan xorijiy tadqiqotchilar tomonidan


neyron tarmoqlarning dastlabki matematik asoslari ishlab chiqilgan, keyinchalik esa ularning amaliy qo'llanilishi kengaytirilgan. Ushbu olimlar biologik neyronlar faoliyatini modellashtirish g'oyasidan kelib chiqib, sun'iy tizimlar orqali murakkab axborot jarayonlarini qayta ishlash mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab berdilar.

Xorijiy olimlar neyron tarmoqlarni ishlab chiqishda an'anaviy matematik va statistik modellar bilan solishtirma tahlil olib bordilar va ularning chiziqli bo'lmagan, noaniq hamda murakkab jarayonlarni modellashtirishda samaraliroq ekanligini isbotladilar. Ayniqsa, vaqt qatorlari, iqtisodiy sikllar, moliyaviy bozorlar va prognozlash masalalarida neyron tarmoqlar yuqori aniqlikdagi natijalar berishi ilmiy tadqiqotlar orqali tasdiqlandi. Shuningdek, xorijiy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan backpropagation algoritmi, ko'p qatlamli neyron tarmoqlar, konvolyutsion va rekurrent arxitekturalar neyron tarmoqlar rivojida burilish nuqtasi bo'ldi. Bu yondashuvlar sun'iy intellektni faqat nazariy yo'nalish sifatida emas, balki real amaliy masalalarni yechishga qodir texnologiya sifatida shakllantirdi. Natijada, xorijiy olimlarning ilmiy ishlari neyron tarmoqlarni zamonaviy iqtisodiy bashoratlash va qaror qabul qilish tizimlarining asosiy vositasiga aylantirdi.

Quyida neyron tarmoq bo'yicha ish olib borgan xorijiy olimlarning faoliyati ko'rib chiqiladi.

Wei Huang — neyron tarmoqlarni iqtisodiy bashoratlashga tizimli olib kirgan olim. Wei Huang — XX asr oxiri va XXI asr boshlarida neyron tarmoqlarni iqtisodiy va moliyaviy bashoratlashga kompleks yondashuv bilan tadbiq etgan yetakchi xorijiy olimlardan biri hisoblanadi. U o'z tadqiqotlarida iqtisodiy jarayonlar tasodifiy emas, balki murakkab, chiziqli bo'lmagan va yashirin qonuniyatlarga ega tizim ekanini asoslab beradi. Shu sababli u an'anaviy ekonometrik modellar (masalan, regressiya yoki ARIMA) real iqtisodiy muhitni to'liq ifodalay olmaydi, degan xulosaga keladi.

Huang aynan shu cheklovlar tufayli sun'iy neyron tarmoqlarni tanlagan, chunki neyron tarmoqlar kiruvchi ko'rsatkichlar o'rtasidagi murakkab bog'liqliklarni oldindan formulalashsiz o'rganish qobiliyatiga ega. Uning ishlarida asosan ko'p qatlamli neyron tarmoqlar yordamida valyuta kurslari, fond bozori indekslari va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bashorat qilingan.



1.4-rasm. Real iqtisodiy ko'rsatkich va ARIMA orqali olingan bashorat.¹²


¹² Huang W., Nakamori Y., Wang S.-Y. Forecasting stock market movement direction with support vector machine. —

Huang tadqiqotlarida odatda ikki chiziqli grafik beriladi: biri real iqtisodiy ko'rsatkich, ikkinchisi esa neyron tarmoq orqali olingan bashorat qiymati. Grafiklar shuni ko'rsatadiki, ANN egri chizig'i real qiymatlarga ARIMA modeliga nisbatan yaqinroq joylashgan. Bu esa neyron tarmoqlarning yuqori aniqligini vizual tarzda isbotlaydi.

Huang ishlaridan so'ng neyron tarmoqlar iqtisodiy bashoratlashda "tajribaviy usul" emas, balki to'laonli ilmiy metod sifatida tan olinadi.

Timo Terasvirta — ekonometrika va neyron tarmoqlarni solishtirgan nazariy olim.

Timo Terasvirta — asosan makroiqtisodiy vaqt qatorlarini tahlil qilish bilan shug'ullangan yevropalik olim bo'lib, u iqtisodiy ko'rsatkichlar vaqt o'tishi bilan bir xil rejimda emas, balki turli holatlar (rejimlar) orqali rivojlanishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. U klassik chiziqli modellar iqtisodiy sikllarni faqat soddalashtirilgan shaklda aks ettirishini ko'rsatadi.



1.5-rasm.Terasvirtaning vaqt qator tahlili.¹³

Shu sababli Terasvirta neyron tarmoqlardan foydalangan, chunki ular iqtisodiy tizimdagi silliq o'tishlar, burilish nuqtalari va yashirin rejimlarni aniqlashga qodir. U neyron tarmoqlarni ekonometrik modellar bilan solishtirib, qaysi holatlarda ANN ustunlikka ega ekanini empirik tadqiqotlar orqali ko'rsatgan.

Uning ishlarida ko'pincha iqtisodiy sikllarni ko'rsatuvchi grafiklar beriladi, bu yerda:


- chiziqli model sikl burilishlarini kechikib aniqlaydi;
- neyron tarmoq esa burilishlarni oldindan sezadi.

Computers & Operations Research, 2005.

¹³ Terasvirta T. Specification, Estimation, and Evaluation of Smooth Transition Autoregressive Models. — Journal of the American Statistical Association, 1994.

Terasvirta neyron tarmoqlarni “statistikaga qarshi” emas, balki statistikani to‘ldiruvchi kuchli vosita sifatida ilmiy asoslab bergan.

Yoshiteru Nakamori — noaniqlik va inson omilini hisobga olgan olim.



1.6-rasm. Iqtisodiy bashorotlashda Neyron tarmoqdan foydalanish.¹⁴

Yoshiteru Nakamori iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayonida inson tafakkuri, noaniqlik va to‘liq bo‘lmagan axborot muhim rol o‘ynashini ta’kidlagan olimdir. U iqtisodiy bashorotlashda qat’iy matematik formulalarga asoslangan modellar real hayotdagi qaror mexanizmlarini to‘liq aks ettira olmasligini ko‘rsatadi.

Shu sababli Nakamori neyron tarmoqlarni tanlagan, chunki ular bir vaqtning o‘zida ko‘plab iqtisodiy ko‘rsatkichlarni qayta ishlash va moslashuvchan xulosa chiqarish imkonini beradi. Uning ishlarida ANN asosida inflyatsiya, ishlab chiqarish hajmi va moliyaviy risklar bashorat qilingan.

Ko‘pincha blok-sxema ko‘rinishida iqtisodiy ko‘rsatkichlar neyron tarmoqqa kirish signali sifatida berilib, chiqishda qaror yoki prognoz hosil bo‘lishi tasvirlanadi.

Nakamori neyron tarmoqlarni iqtisodiy qarorlarni qo‘llab-quvvatlovchi intellektual tizim sifatida asoslab bergan.


Sepp Hochreiter — uzoq muddatli iqtisodiy xotira muammosini hal qilgan olim. Sepp Hochreiter iqtisodiy vaqt qatorlarida uzoq muddatli ta’sirlar mavjudligini aniqlagan va oddiy neyron tarmoqlar bunday bog‘liqliklarni eslab qololmasligini ilmiy jihatdan ko‘rsatgan. Shu muammo sababli u LSTM neyron tarmog‘ini yaratgan.

LSTM modeli iqtisodiy ko‘rsatkichlarning uzoq vaqt oldingi qiymatlari bugungi holatga qanday ta’sir qilishini hisobga oladi. Bu, ayniqsa, inflyatsiya, foiz stavkalari va moliyaviy oqimlarni bashorotlashda muhimdir.

Grafiklarda LSTM modeli prognozi oddiy RNN prognoziga nisbatan kamroq tebranish va yuqori aniqlik ko‘rsatadi.

Hochreiter ishlari iqtisodiy bashorotlashda uzoq muddatli strategik tahlil imkoniyatini ochib berdi.


¹⁴ Nakamori Y. Knowledge Science: Modeling the Knowledge Creation Process. — CRC Press, 2011.



1.7-rasm.LSTM neyron tarmog'ining tuzilishi.¹⁵

Boris Oreshkin — chuqur neyron tarmoqlarni tushunarli qilgan olim. Boris Oreshkin zamonaviy chuqur neyron tarmoqlar asosida iqtisodiy vaqt qatorlarini bashoratlash bilan shug'ullangan. U klassik muammoni ko'taradi: neyron tarmoqlar aniqligi yuqori, lekin tushunarsiz. Shu sababli u N-BEATS modelini ishlab chiqadi.

Bu model nafaqat aniq prognoz beradi, balki trend va mavsumiylikni alohida ko'rsatib bera oladi.



1.8-rasm.N-BEATS ishlash prinsipi.¹⁶

¹⁵ Hochreiter S., Schmidhuber J. Long Short-Term Memory. — Neural Computation, 1997.

¹⁶ Oreshkin B. N., Carпов D., Chapados N., Bengio Y. N-BEATS: Neural basis expansion analysis for interpretable

Grafiklarda umumiy prognoz trend va mavsumiy komponentlarga ajratib ko'rsatiladi, bu iqtisodchilar uchun juda qulay.

Oreshkin neyron tarmoqlarni iqtisodiy bashoratlashda ishonchli va izohlanadigan vositaga aylantirdi.

Ushbu olimlar ishlarida neyron tarmoqlar: murakkab iqtisodiy bog'liqliklarni aniqlash, bashorat aniqligini oshirish, iqtisodiy qarorlarni ilmiy asoslash vositasi sifatida to'liq shakllangan.

MDH davlatlari olimlarining neyron tarmoqlar sohasidagi ilmiy izlanishlari

